

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA‘LIMI VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

**Samarqand davlat pedagogika
instituti rektori
prof.Sh.Sh.Negmatova**



**10.00.01 – O‘ZBEK TILI IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVHLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTURI

Ushbu dastur Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil ____ - ____dagi ____ - sonli bayonnoma)

Tuzuvchilar:

S.A.Yuldosheva Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedراس dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

L.I.Usarova Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedراس dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

I.H.Yoqubov Samarqand davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedراس mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, pedagogik ta’lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish, sohaga Finlandiyaning ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy qilish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-iyundagi “Samaqrand davlat universitetining O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 408-sonli qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qaroriga asosan O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti alohida oliy ta’lim muassasasi sifatida faoliyat boshladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” asarida va 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni va boshqa hujjatlarida o‘zbek tilini o‘rganishga doir muhim fikr va qarashlar olg‘a surilganki, ular o‘zbek tilshini o‘rganish va tadqiq etishda dasturul amal ahamiyatiga egadir.

Metodologik masalalar

O‘zbekistonning til sohasidagi siyosati, jamiyat hayotida o‘zbek tilining davlat tili maqomidagi o‘rni va ahamiyati haqida. Respublika Prezidentining o‘zbek tilining nufuzini oshirish, uni rivojlantirish borasida tilshunoslar, umuman, ziyolilar oldiga qo‘ygan vazifalari va ko‘rsatmalari. “Ona tili – bu millatning ruhidir” iborasining mohiyati. Davlat tili, o‘zbek lotin alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining mohiyati va ahamiyati haqidagi fikrlari. “Davlat tili” tushunchasi va davlat tilining jamiyatdagi o‘rni masalasi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni (1989-yil 21-oktyabr, 1995-yil 25-dekabr), uning mohiyati, Qonunning jamiyat hayotidagi va o‘zbek tili rivojidagi ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni (1993-yil 2-sentabr, 1995-yil 6-may)ning mazmuni va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining asosiy

imlo qoidalari”ni tasdiqlash haqida”gi qarori (1995-yil 24-avgust), imlo qoidalari amaliyoti hamda uni yanada takomillashtirish borasidagi mulohazalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli va 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6084-sonli Farmonlaridagi masalalar.

1-qism. O‘zbek tili tarixi va dialektologiyasi

“O‘zbek tili tarixi” kursi o‘zbek tilining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari va buning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘zbek tili tarixini davrlashtirish masalalarini, qadimiy turkiy til, eski o‘zbek tili, o‘zbek adabiy tili, ularning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan; o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va boyishida, uning funksional uslublari hamda me‘yorlari rivojida tarixiy yozma yodgorliklar tili, xalq lahja va shevalari hamda o‘zbek folklori tilining o‘rni va ahamiyatini belgilash va baholashga yo‘naltirilgan; ana shu shakllanish jarayonida o‘zbek mumtoz adabiyoti tilining, ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozixon, Ogahiy va boshqalarning asarlari tilining ahamiyatini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan.

Shu bilan birga, o‘zbek tili turkiy tillar orasida eng ko‘p shevali tildir: unda qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub yuzlab shevalar mavjud. O‘zbek dialektologiyasi (shevashunosligi) o‘zbek tilshunosligining mustaqil yo‘nalishi bo‘lib, o‘zbek shevalarini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi.

O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tuzilgan savollar imtihon topshiruvchi shaxsning o‘zbek dialektologiyasining maqsad va vazifalari, uning tadqiqot obyekti, tadqiq usullari, o‘zbek tili lahja va shevalarining lisoniy xususiyatlari yuzasidan bilim darajasini aniqlashni ko‘zda tutadi.

2-qism. O‘zbek tili tarixi

O‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasi. “Qadimgi turkiy til”, “Eski o‘zbek tili”, “Hozirgi o‘zbek tili” tushunchalari haqida.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili va uning o‘zbek tilining shakllanishidagi ahamiyati. XIII-XIV asrlarda O‘rta Osiyo va Oltin O‘rda hududlarida yaratilgan adabiy yodgorliklar tili va uning o‘zbek tiliga munosabati. XIV asr oxiri va XV asrning 1-yarmidagi o‘zbek adabiy tili va uning shakllanish manbalari.

Alisher Navoiy tilining dialektal asoslari. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari va uning o‘zbek tili rivojidadagi o‘rni. “Muhokamat ul-lug‘atayn” – tillarni qiyosiy o‘rganish namunasi sifatida. XVI asr

o'zbek adabiy tili rivojini o'rganishda Bobur asarlarining ahamiyati.

XV-XIX asrlarda eski o'zbek tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar va grammatik asarlarning o'zbek tili tarixini o'rganishdagi ahamiyati. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari.

Eski o'zbek adabiy tilining funksional uslublari, ularning shakllanishi va taraqqiyoti. O'zbek tilida publitsistik uslubning paydo bo'lishi va shakllanishida o'sha davr matbuoti tilining o'rni. O'zbek milliy adabiy tili va uning shakllanish manbalari. Milliy tilning asosiy xususiyatlari. O'zbek tili tarixi masalalarining o'rganilishida xorij turkiyshunoslarining xizmatlari.

Eski o'zbek tilida unlilar tizimi. Eski o'zbek tilida undoshlar tizimi. Eski o'zbek tilida singarmonizm.

Eski o'zbek tilida kelishiklar va ularning ifodalanish shakllari. Eski o'zbek tilida sifat darajalari va ularning ifodalanish shakllari. Eski o'zbek tilida tartib son va uning ifodalanish usullari. Eski o'zbek tilida kishilik olmoshlari va ularning turlanishi. Eski o'zbek tilida fe'l mayllari. Eski o'zbek tilida fe'l zamonlari va ularning ifodalanish shakllari.

Eski o'zbek tilining sintaktik xususiyatlari. Eski o'zbek tilida gap bo'laklari, gaplarning tuzilishi va tiplari.

3-qism. O'zbek dialektologiyasi

O'zbek dialektologiyasi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. Lahja, dialekt, sheva tushunchalari tavsifi. Til egasi va sheva egasi. Qarluq lahjasi va uning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari. Qipchoq lahjasi va uning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari. O'g'uz lahjasi va uning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalaridan har birining o'rni. O'zbek shevalarini tasniflash masalasi (G'ozli Olim, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov). O'zbek shevalarining areal o'rganilishi va tasnifi (A.Jo'rayev).

O'zbek shevalarida "o"lashish, uning yuzaga kelishi. O'zbek shevalarida unlilar va ularning adabiy tilga munosabati. O'zbek shevalarida undoshlar va ularning adabiy tilga munosabati. O'zbek shevalarida unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik (uchlamchi) cho'ziqlilari. O'zbek shevalarida fonetik qonunlar (tovush mosligi, singarmonizm, umlaut).

O'zbek shevalarida egalik shakllari. O'zbek shevalarida ko'plik shakllari. O'zbek shevalaridagi kelishiklarning xususiyatlari. O'zbek shevalarida kishilik olmoshlarining kelishiklarda turlanishi. O'zbek shevalarida fe'lning funksional shakllari (harakat nomi, ravishdosh, sifatdosh). O'zbek shevalarida fe'lning o'tgan zamon shakllari. O'zbek shevalarida fe'lning hozirgi va kelasi zamon shakllari.

O'zbek shevalarida fe'lning buyruq-istak mayli shakllari. O'zbek shevalarida yordamchi so'zlar.

O'zbek shevalariga xos so'z yasovchi qo'shimchalar.

O'zbek shevalarining lug'aviy tarkibi va uning o'rganilishi. O'zbek adabiy tilining tayanch dialekti masalasi. O'zbek shevashunoslari.

Areal lingvistika. Areal lingvistika va lingvistikal geografiya. Areal lingvistikaning paydo bo'lishi. Lingvistik areal va uning turlari. Izoglossa va unug turlari. Takson va taksonomiya. O'zbek tilining dialektal zonalari. O'zbekiston Respublikasida lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi. Mahmud Koshg'ariy va areal lingvistika.

4-qism. Hozirgi o'zbek tili

“Hozirgi o'zbek tili” kursi bo'yicha tuzilgan dastur va savollar imtihon topshiruvchining hozirgi o'zbek tili fonetikasi, morfemikasi va so'z yasalishi, morfologiyasi va sintaktik tuzilishi, grammatik kategoriyalari va ularning tasnifi, lug'aviy tizimi va uning tarkibi, boyish manbalari, imlosi va to'g'ri talaffuzi, uslubiyati va boshqalar haqidagi bilimlarini aniqlashni ko'zda tutadi.

O'zbek tilining lug'at tarkibi murakkab tizim va qatlamlardan iborat bo'lib, so'zlar ijtimoiy hayotning turli sohalarda qo'llanib, muayyan sohalarga funksional jihatdan moslashgan, tarmoqlangan bo'ladi. Mana shunday sohalardan biri ilm-fan sohasi bo'lib, unga xoslangan so'zlar terminlar hisoblanadi. Terminologiya bo'yicha tuzilgan savollarning maqsadi imtihon topshiruvchi shaxsning terminologiya, jumladan, o'zbek terminologiyasi bo'yicha bilim darajasini aniqlashdir. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqot olib borayotgan shaxslarning ilmiy terminologiyaning mohiyatini, asosiy lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini yaxshi bilishi, o'z sohasida terminlarni to'g'ri qo'llay olishi nihoyatda muhimdir. Aksincha, terminlarni noto'g'ri qo'llash ilmiy tushunchalarni to'g'ri tushunishga xalaqit beradi.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik, imlo va to'g'ri talaffuz sohalari bo'yicha tuzilgan dastur-savollar haqida ham ayni shu fikrlarni aytish mumkin.

Til strukturasi. Lison va nutq. Lisoniy sath va lisoniy birliklar. Lisoniy sistema. Lisoniy tasnif. Lisoniy paradigma. Lisoniy munosabat. Lisoniy ziddiyat.

Fonetika-fonologiya. Fonema va tovush. Fonema ottenkalari. Unli va undosh fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalari. O'zbek tili unli fonemalari va ularning tasnifi. O'zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi. Bo'g'in turlari va o'zbek tilidagi ko'rinishlari. Urg'u turlari va o'zbek tili urg'usi. Fonetik o'zgarishlar va ularning fonologik asoslari. Adabiy talaffuz (orfoepiya) me'yorlari. Hozirgi o'zbek tilida imlo tamoyillari. Orfografiya asoslari. Lotin yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek alifbosining xususiyatlari.

Leksikologiya. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksemada nom

va ma'no munosabati. Leksik ma'no va tushuncha. Leksik ma'noning tarkibi: sema va uning turlari. Leksik ma'no taraqqiyoti va natijalari. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Polisemiya, uni vujudga keltiruvchi omillar. Nom ko'chish usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik. Kognitiv metafora.

O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar. O'zbek tilida leksik-semantik paradigmatic munosabatlar. Sinonimiya. Antonimiya. Antisemiya. Darajalanish munosabati. Jins-tur munosabati. Butun-bo'lak munosabati. Omonimiya. Partonimiya.

Qo'llanilish doirasi chegaralangan leksika. Qo'llanilish davri chegaralangan leksika. Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi. O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. So'z o'zlashtirish.

Frazeologiya. Frazema. Frazeologik ma'no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlar. Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.

Leksikologiya va leksikografiya. Leksikografiya turlari. Lug'at turlari. Til korpusi. Giperleksikografiya.

Terminologiya. Termin va terminologiya tushunchalari haqida. Terminga qo'yiladigan asosiy talablar. Terminologiyada omonimiya va sinonimiya hodisalariga, polisemiyaga munosabat. Terminlarni me'yorlash tamoyillari.

Terminologiya va purizm. Ilmiy terminologiya va xalq terminologiyasi. Terminologik lug'atlar va ularni tuzish prinsiplari.

Terminologik tizimlarni tasniflash asoslari. O'zbek tili terminologik tizimlari boyishining ichki va tashqi imkoniyatlari. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi: taraqqiyoti va muammolari.

Onomastika. Onomastika sohasi va uning tadqiqot obyekti. Onomastika leksikologiyaning bo'limi sifatida. O'zbek antroponimiyasi va uning xususiyatlari. Atoqli otlarning tiplari va o'ziga xos xususiyatlari. Etnonimiya haqida tushuncha va o'zbek etnonimlari. Toponimika – tilshunoslikning bo'limi sifatida. Toponimlarning tarkib topishida nolisoniy omillarning roli. O'zbek toponimiyasining o'rganilish darajasi. Mustaqillik davrida toponimlarni tartibga solish borasida olib borilayotgan ishlar.

Morfemika. O'zbek tilida affiksial morfemalarning turlari. Qo'shma so'zlar va ularning so'z birikmalaridan asosiy farqlari.

O'zbek tilida lug'aviy va grammatik ma'no, ularning grammatik kategoriyalarga munosabati. O'zbek tilida shakl yasovchi qo'shimchalar va ularning turlari. Lug'aviy shakl yasovchilar. Sintaktik shakl yasovchilar.

Derivatsiya. O'zbek tilida so'z yasash usullari. So'z yasash qoliplari. So'z yasalishi va leksemalashuv. Diaxron va sinxron derivatsiya. Derivatsiya,

transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik.

Morfologiya. O'zbek tilida so'z turkumlarining ajratilishi. So'zlarni turkumlarga ajratish asoslari. O'zbek tilida fe'lning grammatik kategoriyalari. Nisbat kategoriyasi. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi. O'zgalovchi kategoriya. Harakat tarzi kategoriyasi. Fe'lda kesimlik kategoriyasining qo'llanishi. Inkor ifodalovchi vositalar va fe'lning bo'lishsizlik shakllari. Yordamchi fe'l va uning turlari. To'liqsiz fe'l.

Otning grammatik kategoriyalari. Sifat va uning daraja kategoriyasi. Ravish va uning turlari. Sonning ma'noga ko'ra turlari. Olmosh va uning turlari. Taqlid so'zlar.

Egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, mayl (modallik) kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi.

O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari, ularning vazifaviy xususiyatlari.

O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar: taklif-ishora, tasdiq-inkor, modal va undovlar.

Sintaksis. O'zbek tilida sintaktik birliklarning turlari (so'z birikmasi, gap, matn) va ularning o'zaro munosabati. Sintaktik aloqa turlari. So'z birikmalari. Aniq va majhul tuzilmalar (faol va nofaol konstruksiyalar). So'z birikmasi qoliplari.

Sodda gap va uning lisoniy qoliplari. O'zbek tilida sodda gapni tasniflash asoslari. Gap turlari: darak, so'roq, buyruq gaplar; sodda va qo'shma gaplar; yig'iq va yoyiq gaplar; tasdiq va inkor gaplar; to'liq va to'liqsiz gaplar, egali va egasiz gaplar.

Sodda gapning grammatik bo'linishi. Gap bo'laklari nazariyasi: bosh va ikkinchi darajali bo'laklar; gap va so'z kengaytiruvchilari; subyekt, predikat, obyekt tushunchalari.

Sodda gapning murakkablashuvi. O'zbek tilida uyushiq va ajratilgan bo'laklar. Undalma. Kirish va kiritma tuzilmalar.

Uyushgan gap tushunchasi va uning ajratilishi. Uyushgan gap o'zbek tilining milliy xususiyati sifatida.

Sodda gaplarda shakl va mazmun nomutanosibligi va uning tadqiqi. Sodda gapning aktual bo'linishi: aktuallashtiruvchi vositalar. Sodda gaplarda so'z tartibi. Inversiya.

Qo'shma gap va uning qoliplari. O'zbek tilida qo'shma gaplarni tasniflash asoslari. Qo'shma gap turlari.

Teng, tobe va mutanosib tarkibli qo'shma gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Bog'langan, bog'lovchisiz, ergash gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra turlari. Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari. O'zga

gap va uni ifodalash yo'llari.

Punktuatsiya. Punktuatsiya tarixi va taraqqiyoti. Hozirgi o'zbek tilida punktuatsiya muammolari.

O'zbek tilida murakkab sintaktik butunlik tushunchasi va uning ajratilishi. Matn va uning tadqiqi muammolari. Matn tahlili. Matnga antroposentrik yondashuv.

Nutq madaniyati. Adabiy til tushunchasi. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari. Adabiy me'yor tushunchasi. Adabiy me'yor turlari. Adabiy tilning lahja va shevalar bilan o'zaro munosabati. O'zbek adabiy tilining dialektal asoslari.

Adabiy til va nutq madaniyati. Nutq madaniyati – tilshunoslik bo'limlaridan biri sifatida. Nutq madaniyati sohasining tadqiqot obyekti.

Uslubshunoslik (stilistika) sohasi va uning tadqiqot obyekti. O'zbek uslubshunosligining o'rganilish darajasi. O'zbek tilining funksional uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy matnning asosiy xususiyatlari. Lingvopoetika haqida tushuncha. Lug'aviy stilistika.

**10.00.01 – “O‘zbek tili” ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihon dasturi
yuzasidan o‘qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar**

a) metodologik adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O‘zbekiston NMIU, 2016. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni (1989-yil 21-oktabr; yangi tahriri 1995-yil 21-dekabr).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni (1993-yil 2-sentabr; yangi tahriri 1995-yil 6-may).
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ni tasdiqlash haqida”gi 339-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF- 4797-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni.

b) ilmiy adabiyotlar:

8. Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent, 1992.
9. Abdurahmonov G‘. Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.– Toshkent, 2009.
10. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, Nodirabegim nashriyoti 2021.
11. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Toshkent, Bookmany Print, 2023.
12. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – Москва, 1951.
13. Ne‘matov H. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. - Toshkent, 1992.
14. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T., 2002.
15. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jayeva S. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1992.
16. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi.

Sintaksis. – Toshkent, 1995.

17. Sanaqulov U., Nasriddinzoda B. Qadimgi yozuvlar va eski o‘zbek alifbosi. – Toshkent, 1990.

18. Tursunov U., Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 1965, 1990.

19. Tursunov U., O‘rinboyev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1982.

20. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent, 1996.

21. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent, 2007.

22. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. Toshkent, 2010.

23. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zME, 2013.

24. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent, 2010

25. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

26. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.

27. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. - T.: Universitet.

c) o‘zbek tili sohalari bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlar:

28. Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili. – T., 2004.

29. Aliyev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. – T., 1994.

30. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-3-qismlar. – T., 1997-1999.

31. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish. - T., 1995.

32. «Davlat tili haqida» (O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni matnlari, qonunosti hujjatlar, qonunni amalga oshirish yo‘lidagi-muammo va yechimlar) (tuzuvchi – N. Jumaxo‘ja.). – T., 2008.

33. Djamalxanov X. Osnovoy uzbekskoy grafiki. – T., 1991.

34. Do‘simov Z., Tillayeva M. Toponimika asoslari. – T., 2002.

35. Jamolxonov H. O‘zbek tilining nazariy fonetikasi. – T., 2009.

36. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – T., 2007.

37. .Ishayev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. – T., 1990.

38. Yo‘ldoshev B., Qurbonov T. Badiiy asar tili va uslubi masalalari. - Samarqand, 2004.

39. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - T., 2007.

40. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T., 2008.
41. Lutfullayeva D.E. Gapni semantik-sintaktik qoliplashtirish muammolari. - T., 2005.
42. Mamajonov A. Qoʻshma gap stilistikasi. – T., 1990.
43. Mamatov A.E. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammosi. - T., 1991.
44. Mahmudov N. Oʻqituvchi nutqi madaniyati. - T., 2007, 2009.
45. Mirahmedova Z. Oʻzbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – T., 2010.
46. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. - T., 2000.
47. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. – T., 2010. 48. Muxtorov A., Sanaqulov U. Oʻzbek adabiy tili tarixi. - T., 1995. 49. Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. - T., 1992.
50. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari. - T., 2006.
51. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. - T., 2008. 52. Rustamov T. Sof koʻmakchilar. - T., 1991.
53. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. - T., 1990.
54. Fozilov E. Oʻzbek tilining tarixiy morfologiyasi. - T., 1966.
55. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. T., 2011
56. Yusufov B. Mestoimeniya v starouzbekskom yazыke. - T., 1991.
57. Oʻzbek shevalari leksikasi. - T., 1991.
58. XV-XIX asrlar oʻzbek tili morfologiyasi. - T., 1990.
59. Qilichev E. Oʻzbek tilining amaliy stilistikasi. - T., 1992.
60. Qilichev E, Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - Buxoro, 2002.
61. Qurbonova M. Hozirgi zamon oʻzbek tili (sodda gap sintaksisi). - T., 2002.

Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri

I.Yoqubov

Tillar fakulteti dekani

v.b.prof. I.Utayeva

